XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-136-8-121-K/25 Termiz shahar

Termiz shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ–1105-son Qonuniga, xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga, Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/129-sonli xatiga muvofiq hamda Termiz shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 26-dekabrdagi 01/33-2526-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik, ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Termiz shahar budjetining 2026-yilgi daromadlari **141 557 850,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **141 557 850,0 ming so‘m**ga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Termiz shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **446 294,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Termiz shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

Termiz shahar mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Termiz shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq;

Termiz shahar mahalliy budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq;

2026-yilda Termiz shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 856 000,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Sh.Dusmuratov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Jumayev), shahar soliq inspeksiyasi (S.Turayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Mustafakulov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Dusmuratov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **LOLAYEV SHAROFIDDIN USANOVICH**

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-136-8-121-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Termiz shahar mahalliy budjet daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**141 557 850**
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 416 000
2.	Jismoniy shaxslarning mol mulkini ijaraga berishdandan olinadigan daromad solig‘i	1 946 000
3.	Aylanmadan olinadigan soliq	17 542 000
4.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 487 350
5.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	31 603 000
6.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	31 624 000
7.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	21 263 000
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 778 000
9.	Davlat bojlari	11 077 500
10.	Jarimalar	5 401 250
11.	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	700 000
12.	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	25 000
13.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	684 000
14.	Yig‘imlar	5 010 750
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**0**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	
Daromadlar hammasi		**141 557 850,0**

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-136-8-121-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Termiz shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Jami
	Xarajatlar miqdori, jami	**141 557 850**
1.	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	35 091 834
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 606 800
2.	Madaniyat bo‘limi	7 256 880
3.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 399 527
4.	Sport bo‘limi	7 249 849
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 307 094
6.	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	578 698
7.	Hokimiyat	39 296 748
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	3 322 670
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 166 775
	Madaniyat bo‘limi	168 439
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	389 578
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	227 415
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	674 541
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	340 725
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	14 806 669
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 550 062
	Zahira jamg‘armasi	1 856 000
8.	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	45 470
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	45 470
9.	Obodonlashtirish boshqarmasi	47 331 750

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-136-8-121-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

Boshi

№	Hudud nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan			
		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1.	Termiz shahar	0%	5%	100%	95%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%

Davomi

№	Hudud nomi	Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo			
		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
1.	Termiz shahar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
		0%	5%	100%	95%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

Davomi

№	Hudud nomi	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
1.	Termiz shahar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
		0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

Davomi

№	Hudud nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
1.	Termiz shahar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
		0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%

Oxiri

№	Hudud nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1.	Termiz shahar	25%	75%	25%	75%	25%	75%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh:

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-136-8-121-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Mahalliy budjetning jami daromadlari	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
			Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Jami		**141 557 850**	**141 557 850**	**0**	**141 557 850**
1.	Termiz shahar	141 557 850	141 557 850	0	141 557 850

**tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olgan holda.*

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-136-8-121-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetida 2026-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1.	Termiz shahar	446 294,0